


2020- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, yuridik shaxs bo‘lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2020- yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 1 333 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Natijada, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 906 ta (22,9 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiyligi soni 20 954 tani tashkil etgan.






Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


2020- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, 20 954 ta korxona va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 22,9 % ga o‘sigan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jamiga nisbatan 27,7 % savdo, 13,9 % sanoat, 11,5 % qurilish, 8,0 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,7 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 24,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da.


(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko‘p Termiz shahri (4 118 ta), Denov tumani (2 490 ta), Jarqo‘rg‘on tumani (1 634 ta) va Termiz tumani (1 447 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha Bandixon (118 ta), Oltinsoy (810 ta) hamda Muzrabot (953 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 20 335 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 660 ta (22,0 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi, % da.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (4 059 ta), Denov (2 411 ta), Jarqo'rg'on (1 574 ta) va Termiz (1 419 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bandixon (118 ta), Oltinsoy (792 ta) hamda Muzrabot (928 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda.**
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


2020- yil yanvar-mart oylarida 1 333 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2019- yilning shu davriga nisbatan 0,8 martaga kamdir.

2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda. (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (199 ta), Qumqo‘rg‘on (154 ta) va Denov (135 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (43 ta), Bandixon (47 ta) hamda Muzrabot (49 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (543 ta), sanoat (215 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (190 ta) va qurilish (116 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (16 ta), axborot va aloqa (19 ta) hamda tashish va saqlash (37 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

2020- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, 16 693 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar - 6 528 ta, oilaviy korxonalar - 1 757 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar - 8 046 ta, unitar korxonalar - 144 ta, aksiyadorlik jamiyatları - 25 ta va boshqalar - 193 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda.

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- aprel holatiga ko'ra, 8 237 tani tashkil etib, ulardan 8 046 tasi yoki 97,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 785 taga yoki 28,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 610 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 155 taga kamdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.

	01.04.2020- yil	2020- yil yanvar-mart	
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	8 237	8 046	610
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	957	929	121
Sanoat	1 308	1 276	82
Qurilish	1 426	1 395	79
Savdo	2 554	2 506	229
Tashish va saqlash	612	596	31
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	327	319	18
Axborot va aloqa	110	109	10
Sog 'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	98	94	4
Boshqa turlari	845	822	36

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 31,1 %, qurilish 17,3 %, sanoat 15,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11,5 % va boshqa turlari 10,2 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,2 %, axborot va aloqa 1,4 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4,0 % va tashish va saqlash faoliyat turlarida 7,4 % ga to'g'ri kelgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
tumanlar bo'yicha soni, birlikda.**



Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


2020- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16 568 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 26,5 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda.

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxona	mikrofirmalar
Surxondaryo viloyati	16 568	856	15 712
Termiz sh.	3 533	215	3 318
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	547	29	518
Angor	811	41	770
Bandixon	96	4	92
Boysun	742	20	722
Muzrabot	727	20	707
Denov	1 989	144	1 845
Jarqo‘rg‘on	1 300	62	1 238
Qumqo‘rg‘on	1 075	48	1 027
Qiziriq	810	36	774
Sariosiyo	802	51	751
Termiz	1 248	53	1 195
Uzun	813	40	773
Sherobod	974	42	932
Sho‘rchi	1 101	51	1050


2020- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, % da.
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 3 533 tasi (21,3 %) Termiz shahri, 1 989 tasi (12,0 %) Denov, 1 300 tasi (7,8 %) Jarqo‘rg‘on hamda 1 248 tasi (7,5 %) Termiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16 568 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 639 ta (34,0 %) - savdo, 2 794 ta (16,9 %) - sanoat, 2 345 ta (14,1 %) - qurilish, 1 561 ta (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 471 ta (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 760 ta (4,6 %) - tashish va saqlash, 275 ta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 250 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 466 tasi (8,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil yanvar-mart oylarida 1 277 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 340 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (195 ta), Qumqo'rg'on (147 ta), Sho'rchi (131 ta) hamda Denov tumanlarida (128 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Bandixon (29 ta), Oltinsoy (39 ta), Muzrabot (48 ta) hamda Uzun (50 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 540 ta, sanoat 215 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 188 ta va qurilishda 116 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 14 ta, axborot va aloqa 19 ta hamda tashish va saqlashda 37 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- aprel holatiga ko'ra? 1 837 tani tashkil etib, ulardan 1 757 tasi yoki 95,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 204,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda.

	01.04.2020- y.		2020- yil yanvar-mart
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Surxondaryo viloyati	1 837	1 757	364
Termiz sh.	101	101	9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	95	94	13
Angor	128	126	8
Bandixon	8	8	5
Boysun	38	36	23
Muzrabot	58	57	9
Denov	315	294	35
Jarqo'rg'on	208	197	27
Qumqo'rg'on	118	111	60
Qiziriq	80	80	7
Sariosiyo	91	90	33
Termiz	104	101	24
Uzun	41	37	11
Sherobod	159	156	51
Sho'rchi	293	269	49

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,3 % yoki 550 tasi savdo, 25,9 % yoki 456 tasi sanoat, 25,2 % yoki 442 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,0 % yoki 198 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 29 tasi qurilish, 0,8 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,4 % yoki 59 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda.**


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	364	100,0
Termiz sh.	9	2,5
Oltinsoy	13	3,6
Angor	8	2,2
Bandixon	5	1,4
Boysun	23	6,3
Muzrabot	9	2,5
Denov	35	9,6
Jarqo‘rg‘on	27	7,4
Qumqo‘rg‘on	60	16,5
Qiziriq	7	1,9
Sariosiyo	33	9,1
Termiz	24	6,6
Uzun	11	3,0
Sherobod	51	14,0
Sho‘rchi	49	13,4

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Qumqo‘rg‘on (60 ta), Sho‘rchi (49 ta) va Denov (35 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kam Bandixon (5 ta), Qiziriq (7 ta) hamda Angor (8 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


2020- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da.




Savdo




Sanoat



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish
bo‘yicha xizmatlar



Qurilish



Axborot va aloqa



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko‘rsatish




Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 43,1 % yoki 157 tasi savdo, 26,6 % yoki 97 tasi sanoat, 12,9 % yoki 47 tasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 12,6 % yoki 46 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 1,1 % yoki 4 tasi qurilish, 0,5 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 1 tasi tashish va saqlash shuningdek, 2,8 % yoki 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 380 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 151 taga yoki 165,9 % ga o’sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahri (180 ta), Termiz (39 ta), Uzun (30 ta), Angor (19 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari Oltinsoy (5 ta), Boysun (6 ta), Jarqo‘rg‘on hamda Qiziriq (10 tadan) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 127 tasi qo‘shma, 253 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da.



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda.

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo‘shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	380	127	253
Termiz shahri	180	30	150
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5	4	1
Angor	19	5	14
Boysun	6	5	1
Muzrabot	13	5	8
Denov	15	8	7
Jarqo‘rg‘on	10	6	4
Qumqo‘rg‘on	13	6	7
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	15	11	4
Termiz	39	15	24
Uzun	30	17	13
Sherobod	13	6	7
Sho‘rchi	12	8	4

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020- yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga kamaygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahri (20 ta yoki jamidagi ulushi 55,6 %), Qumqo'rg'on (4 ta yoki jamidagi ulushi 11,1 %), Sho'rchi (3 ta yoki 8,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Angor, Boysun, Sariosiyo va Uzun (1 tadan yoki 2,8 % dan) hissalariga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda.



Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 26 ta, Rossiya Federatsiyasi 3 ta, Tojikiston, Qozog'iston, Xitoy, Fransiya, Hindiston, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar-mart oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (15 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (9 ta), sanoat (6 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish xizmatlari (1 ta) hamda qurilishda (3 ta) tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda.



**Surxondaryo viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda.**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	79	48	31
Rossiya Federatsiyasi	39	25	14
Tojikiston Respublikasi	20	12	8
Qozog'iston Respublikasi	11	7	4
Turkmaniston Respublikasi	6	2	4
Gruziya Respublikasi	3	2	1

Viloyatda MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 10,3 %, Tojikiston Respublikasi 5,3 %, Qozog'iston Respublikasi 2,9 %, Turkmaniston Respublikasi 1,6 %, Gruziya Respublikasida 0,8 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**
Tel.:(76) 225-65-90